

ADVOKATURA FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY VA INTITUTIONAL ASOSLARI

Narmatova Nafisa Taxir qizi

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar
fakulteti Yurisprudensiya yo`nalishi 248-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi advokatura faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy va institutsional islohotlar tahlil qilinadi. Advokatlarning mustaqilligi, malaka oshirish tizimi, aholiga yuridik yordam ko'rsatishning yangi mexanizmlari hamda tergov organlari bilan o'zaro hamkorlik masalalari yoritiladi. Shuningdek, advokatura tizimida raqamlashtirish jarayonlari va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda advokatlar rolini kuchaytirish bo'yicha takliflar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Advokatura, advokat mustaqilligi, huquqiy yordam, malaka oshirish, raqamlashtirish, sud-huquq islohotlari, institutsional islohotlar, himoya huquqi.*

Annotation: *This article analyzes the legal and institutional reforms aimed at improving the effectiveness of advocacy. It examines the independence of lawyers, professional development systems, new mechanisms of providing legal assistance to the public, and cooperation between lawyers and investigative bodies. The paper also discusses digitalization processes within the advocacy system and provides recommendations for strengthening the role of lawyers in protecting citizens' rights.*

Keywords: *Advocacy, independence of lawyers, legal assistance, professional development, digitalization, judicial reforms, institutional reforms, right to defense.*

Аннотация: *В данной статье анализируются правовые и институциональные реформы, направленные на повышение эффективности адвокатской деятельности. Рассматриваются вопросы независимости адвокатов, системы повышения квалификации, новые механизмы оказания юридической помощи населению, а также взаимодействие адвокатов с следственными органами. Кроме того, обсуждаются процессы цифровизации в системе адвокатуры и предлагаются рекомендации по усилению роли адвокатов в защите прав граждан.*

Ключевые слова: *Адвокатура, независимость адвокатов, юридическая помощь, повышение квалификации, цифровизация, судебно-правовые реформы, институциональные реформы, право на защиту.*

Advokatura jamiyatda adolatni qaror toptirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning eng muhim institutlaridan biridir. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati rivojlanishi bevosita advokatlarning mustaqilligi, malakasi va ularning faoliyati uchun yaratilgan sharoitlar bilan belgilanadi. Advokatura faoliyatida samaradorlikni oshirish uchun

oldingi davrlarda uning maqomi qanday huquqiy asoslarga ega bo'lganligini ko'rib ketish maqsadga muvofiq boladi.

Advokatura asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan va eng qadimgi protsessual institutlar sirasiga kiradi. Sudda tomonlar vakillarining qatnashishi g'oyasi asta-sekin tarixiy jarayon yo'li bilan rivojlangan. Sudda vakillik – jarayonda bir shaxsning boshqasi bilan almashtirilishi bo'lib, unda suddagi vakil faoliyatining barcha oqibatlari bevosita vakolat beruvchi zimmasiga yuklanadi. Vakillikning dastlabki g'oyalari avvalo ikkita institut – oilaviy vakillik va yuridik shaxslar, davlatlar vakilligini nazarda tutgan. O'rta asrlarda qarindoshlik vakilligi slavyan va nemis xalqlarida keng rivojlandi. Bolalar, aka-ukalar, jiyalar va hatto qo'shnilar va do'stlar – mana shu shaxslar odatda vakillar sifatida qatnashishgan. Boshqa tomondan, sudga shaxsan tashrif buyurish haqidagi qadimiy qat'iy qoidani yuridik shaxslarga nisbatan bajarib bo'lmasdi, chunki ularning bevosita sud oldida javob berishlarining iloji yo'q edi. Qadimdayoq, hech qanday xususiy shaxslar sudda qarindoshlari yoki qondoshlik jihatidan tashqari, biror vakilga ega bo'lmagan paytlarida ham, ular vakillarga murojaat qilish huquqidan foydalanganlar. O'rta asrlarda, masalan, cherkovlar mana shunday huquqdan foydalanishgan – ularning suddagi vakillari dastlabki paytlarda rahbar ruhoniylar bo'lishgan bo'lsa, keyinchalik qonunlarga tushunuvchi ruhoniylar ichidan olingan begona shaxslar ham vakillik qilishgan. “Advokat” so'zi lotin yozuvidan olingan va ikki xil ma'noga ega:

- a) sud ishlari bo'yicha ishonchli vakil, suddagi himoyachi;
- b) nimaningdir yoki kimningdir himoyasi uchun og'zaki yoki yozma ravishda chiquvchi³⁶

XIX asrda advokatura deganda tor ma'noda huquqni himoya qilish tushunilgan, keng ma'noda esa – huquqni himoya qilish va sudda vakillik qilish nazarda tutilgan. Huquqni himoya qilish deganda muhtojlarga qonunni maxsus o'rganuvchi insonlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatilishi tushuniladi. Huquqni himoya qilish va sudda vakillik turlicha ehtiyojlar asosida yuzaga kelgan va ularning faoliyat sohasi bir-biriga muvofiq kelavermagan. Yevropaning ko'plab mamlakatlarida advokatura va sudda vakillik ikkita turlicha institut sifatida mustaqil rivojlangan. G'arbiy yevropada huquqni himoya qiluvchilar advokat nomiga ega bo'ldilar. Eng qadimiy yuridik institut – advokaturaning O'zbekistonda rivojlanishi, dunyoning aksariyat mamlakatlarida bo'lgani kabi, oilaviy vakillikdan boshlangan, bunda oila boshlig'i sud oldida oilaning har bir a'zosi manfaatlarini himoya qilgan. Bunda faqat qondoshlari emas, oilaning boshqa a'zolarini ham, shuningdek oilaboshlig'idan himoya va rahnamolik so'ragan boshqa shaxslarga ham vakillik qilgan. O'zbekiston hududida advokatura institutining rivojlanishini shartli ravishda quyidagicha tasvirlash mumkin.

- ♣ Birinchi bosqich – yuridik yordam institutining yuzaga kelishi (muftilar – musulmon huquqi bilimdonlari sifatida)
- ♣ Ikkinchi bosqich – O'zbekistonda advokatura instituti yuzaga kelishi
- ♣ Uchinchi bosqich – advokatura instituti tashkiliy-huquqiy asoslarini isloh qilish bosqichi

³⁶ Boykov A.D. Kapinus N.I. Advokatura Rossii: Uchebnoe posobie.- M.:IMiP, 2000

♣ To'rtinchi bosqich – mustaqil O'zbekistonda advokatura institutini isloh qilish bosqichi

♣ Beshinchi bosqich – advokatura institutini yanada isloh qilish bosqichi.

Mana shunday bosqichlardan o'tib hozirgi kundagi rivojlanayotgan advokatura faoliyatiga huquqiy asoslarda erishilgan. Advokatura faoliyatining samaradorligini oshirishning huquqiy asoslari qonunchilikni takomillashtirish, advokatlar mustaqilligini ta'minlash va ularning daxlsizligini kafolatlash, shuningdek, elektron tizimlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Institutsional asoslar esa Advokatlar palatasining roli, malaka oshirish tizimi, reytinglashtirish va ochiqlikni ta'minlash orqali namoyon bo'ladi. Asosiy yo'nalishlar qatoriga yagona elektron reyestr, videokonferensiya orqali malaka oshirish, malaka darajalarini joriy etish va ommaviy axborot vositalarida hisobotlarni e'lon qilish kiradi.

Huquqiy asoslar

-Qonunchilikni takomillashtirish: Advokatlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish orqali advokatlar faoliyatini tartibga solish va himoya qilish.

-Mustaqillik va daxlsizlik: Advokatlar faoliyatining mustaqilligini, daxlsizligini va huquqiy himoyasini ta'minlash (bunda xalqaro standartlarga rioya qilish muhim).

-Elektronlashtirish: Advokatlar va advokatlik tuzilmalarining yagona elektron reyestrini yaratish, elektron xabarnoma tizimini joriy etish, bu orqali sudga keliah va uchrashuvlarni osonlashtirish.

Institutsional asoslar

-Advokatlar palatasining ro'li: Palata faoliyatini yanada ochiq qilish, moliyaviy hisobotlarni ommalashtirish.

-Malaka oshirish tizimi: Joylarda, videokonferensiyalar orqali professional malakani oshirish amaliyotini kengaytirish.

-Reyting va baholash tizimi: Advokatlar va tuzilmalar faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish, reytinglarni tuzish va e'lon qilish.

-Ochiqlik va hisobdorlik: Advokatlar palatasi hisobotlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali shaffoflikni oshirish.

Samaradorlikni oshirishning umumiy yo'nalishlari

-Advokatlik faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish.

-Advokatlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

-Xalqaro standartlar va tajribalarni o'rganish va joriy etish.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Advokatura faoliyati huquqiy davlatning ajralmas bo'g'ini bo'lib, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Mazkur maqolada advokatura institutining tarixiy shakllanishi, uning huquqiy maqomi va zamonaviy islohotlar jarayonidagi o'rni keng yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, advokatura faoliyatining samaradorligi, avvalo, advokatning mustaqilligi, huquqiy kafolatlarining mustahkamligi, malaka oshirish tizimining uzluksizligi hamda raqamlashtirilgan boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishiga bevosita bog'liqdir.

Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda advokatura tizimini takomillashtirish boʻyicha olib borilgan huquqiy va institutsional islohotlar advokatlarning jamiyatdagi oʻrnini mustahkamlash, ularning kasbiy faoliyatini erkin, shaffof va samarali amalga oshirishiga zamin yaratmoqda. Xususan, qonunchilikni yangilash, advokatlarning daxlsizligini taʼminlash, yagona elektron reyestr tizimini yaratish, malaka oshirishning zamonaviy shakllarini qoʻllash va Advokatlar palatasi faoliyatining ochiqligini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar sohaga sifat jihatidan yangi bosqich olib kirmoqda.

Shuningdek, xalqaro standartlar va ilgʻor tajribalarni milliy tizimga implementatsiya qilish, tergov va sud organlari bilan hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish, advokatlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish ham kelgusida advokatura institutining yanada rivojlanishini taʼminlaydi.

Umuman olganda, advokatura faoliyatining samaradorligini oshirish — huquqiy davlatni barpo etish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud-huquq islohotlarining izchil amalga oshirilishi uchun zarur shartdir. Huquqiy, tashkiliy va raqamli islohotlarning uygʻunlashuvi esa Oʻzbekistonda adolatli, mustaqil va professional advokatura tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI:

1. Advokatura. Darslik. T.: 2016.
2. Boykov A.D. Kapinus N.I. Advokatura Rossii: Uchebnoe posobie.- M.:IMiP, 2000.
3. Ayniy S. Esdaliklar. T.Uzbekiston. 1953.
4. “Advokatura Instituti Samaradorligini Tubdan Oshirish Va Advokatlarning Mustaqilligini Kengaytirish Chora-Tadbirlari Toʻgʻrida”.12.05.2018.
5. “Advokatura toʻgʻrisida”qonun.27.12.1996.